



SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA KICHIK LIRIK JANRLAR BADIYATI

Payzullayeva R.M.

NDU doktoranti f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: *Mazkur tezisdagi Sirojiddin Sayyid ijodidagi kichik lirik janrlar, xususan, masnaviy va fardlarning badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir asarlarida mumtoz adabiyot an'analarining davomiyligi, qofiya tizimi, poetik tafakkur va vatanparvarlik g'oyalarining ifodalanishi yoritiladi. Masnaviy va fard janrlarining shakliy hamda mazmuniy jihatlari misollar asosida ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sirojiddin Sayyid, kichik lirik janrlar, masnaviy, fard, poetika, qofiya, badiiy mahorat, vatanparvarlik, mumtoz an'ana, she'riyat.*

Аннотация: *В данной работе анализируются художественные особенности малых лирических жанров в творчестве Сирожиддина Саййида, в частности маснави и фарда. Освещаются вопросы преемственности классических литературных традиций, системы рифмовки, поэтического мышления и отражения патриотических идей в произведениях поэта. На основе примеров раскрываются содержательные и формальные особенности указанных жанров.*

Ключевые слова: *Сирожиддин Саййид, малые лирические жанры, маснави, фард, поэтика, рифма, художественное мастерство, патриотизм, классическая традиция, поэзия.*

Abstract: *This paper examines the artistic features of small lyrical genres in the works of Sirojiddin Sayyid, particularly the masnavi and fard. The study highlights the continuity of classical literary traditions, the rhyme system, poetic thinking, and the expression of patriotic ideas in the poet's works. The formal and thematic characteristics of these genres are revealed through textual analysis and illustrative examples.*

Keywords: *Sirojiddin Sayyid, small lyrical genres, masnavi, fard, poetics, rhyme, artistic mastery, patriotism, classical tradition, poetry.*

Masnaviy janri taraqqiyotiga nazar tashlansa, mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham bu janrda samarali ijod qilingan. Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a" asarida masnaviy ikki misradan iborat bo'lib, ikki misra o'zaro qofiyalangan bo'lishi lozimligini va asosan, she'riy qissalar masnaviyda yozilganini ta'kidlab o'tadi.⁶⁶ Tadqiqotlarda masnaviy Alisher Navoiy davriga kelib epik she'riyatning asosiy janriga aylangani, masnaviyda yuz berayotgan katta ijtimoiy voqealarni keng ko'lamda yoritish, u yoki bu muammoni atroflicha ishlangan syujet va obrazlar yordamida hal qila olish imkoniyati ko'pligi haqli ta'kidlanadi.⁶⁷

⁶⁶ А.Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент: 2002 йил, 1-сон. – Б. 84.

⁶⁷Қаранг: О.Носиров, С.Жамолов, М.Зиёвиддинов. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 125.



Adabiyotshunos B.To‘xliyev masnaviyning janr xususiyati haqida gapirib, uning to‘rt jihati haqida to‘xtaladi: 1) *masnaviy alohida, o‘ziga xos she‘riy shakllardan biri*; 2) *masnaviydagi bayt misralari o‘zaro qofiyadosh bo‘ladi*; 3) *har bir bayt qofiya nuqtayi nazaridan mustaqildir*; 4) *masnaviy hajm va mavzu jihatidan chegaralangan emas*.⁶⁸ Haqiqatan ham, epik she‘riyatda masnaviy – she‘riy shakldan adabiy janr darajasigacha o‘sib chiqqan.

Masnaviyda yozilgan asarlarda qofiyalanish tarzi o‘ziga xos: asarning har baytida yangi, takrorlanmas, original qofiya keltira olish har bir ijodkorning mahorati, iste’dodi va boy ijodiy tajribasi bilan belgilanadi.

Sirojiddin Sayyid ijodidan *masnaviy* janri ham salmoqli o‘rin olgan. Sirojiddin Sayyid masnaviyilarini kuzatganimizda, uning mumtoz adabiyot an‘analarini munosib davom ettirgan ijodkor ekanligini, asarlariga jilo bergan namunalar yuksak mahorat bilan yaratilganligini kuzatdik. Masalan, uning “Darvozalar” she‘ri zamonaviy masnaviy yo‘lida yozilgan:

*Mahkam bo‘lsak yurtni shikast etmasdilar,
Qodiriyni balki olib ketmasdilar.
Bedarvoza shahar yo‘qdir, bobolardan
Qolgan gap bu, olmadim men havolardan*⁶⁹. (II, 81)

Namuna sifatida keltirilgan misolda “*etmasdilar-ketmasdilar*”, “*bobolardan-havolardan*” singari to‘q qofiyalar misralar mazmunini bir zarbli, ta’sirli bo‘lishini ta’minlagan. Shoirning “Mard-u maydon o‘g‘lonlar” she‘ri ham masnaviyda qofiyalangan:

*Shu tabarruk tuproq bizga azal Vatan,
Betakror ham, muqaddas ham go‘zal Vatan.
Borligimiz – shunday Vatan bor uchundir,
G‘urur uchun, nomus uchun, or uchundir!
Qudrat bergan, shiddat bergan jism-u tanga,
Jonlar fido bo‘lsin deymiz shu Vatanga*.⁷⁰

Har baytdagi “*azal-go‘zal*”, “*bor-or*”, “*tanga-Vatanga*” qofiyalari ohangdorlikni oshirgan, o‘ynoqilikni ta’minlagan. She‘rning ravon o‘qilishida masnaviy qofiya muhim rol o‘ynagan. Shoirning boshqa masnaviy yo‘lida qofiyalangan she‘rlarida ana shu xususiyat ajralib turadi. Lekin ularda aruzning qat’iy bir bahridan foydalanilmagan. Faqat bunda mumtoz adabiyotimizdagi janrga shakliy o‘xshashlik mavjud, xolos.

Fard mumtoz adabiyotimizda hajm jihatdan eng kichik janr hisoblanadi. U atigi ikki misra – bir baytdan iborat bo‘ladi. Ammo fard ijodkori shu ikki misrada fikrning eng quyug‘i, qaymog‘i bo‘lgan xulosani berishi lozim. Fard so‘zining ma’nosi “yakka” degan ma’noni anglatadi. Adabiyotimiz tarixida Lutfiy, Alisher Navoiy fardning go‘zal namunalarini yaratgan.

⁶⁸Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг бадиий маҳорати. – Тошкент, 2005. – Б.9.

⁶⁹ Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. –Тошкент: SHARQ, 2018. – Б.281

⁷⁰ Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. –Тошкент: SHARQ, 2019. – Б.412



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Fard ijodkordan nihoyatda o'tkir zakilylik, katta hayotiy tajriba talab etadi. Sirojiddin Sayyid buni his etgan holda fardlarda fikrning qaymog'ini go'zal tashbehlarda ochib berishga harakat qilgan. Ayniqsa, uning Vatan mavzusidagi fardlari puxta poetikasi, mazmun zalvori, shakliy mukammalligi bilan o'zgacha badiiy ahamiyatga ega:

*Sen Vatanga Termiziylar ko'zi-la solib nazar,
Ta'lim olsang, bo'lgung oxir bir kuni sohibnazar.*⁷¹

Keltirilgan misollarda Sirojiddin Sayyidga xos poetik tafakkur xususiyatlari ko'rinib turibdi. Termiziylar ko'zi bilan Vatanga nazar solish uchun, albatta, yuksak darajada bilimli bo'lish lozim. Bu sharafiga erishgan kishi Termiziydek sohibnazar bo'lishi, alloma bo'lib yetishishi, shubhasiz.

Yana bir fardda Vatanni doimiy o'rganish lozimligi ta'kidlanadi, Vatanni qanchalik ko'p va chuqur o'rganilsa, u eng buyuk ustoz ekanligiga har qanday odam imon keltiradi:

*Bul Vatanni o'rganib, har qancha bilsang – oz ekan,
Ul buyuk ustoz ekan, mangu buyuk ustoz ekan.*⁷²

Shoir nazdida Vatan mehri kishining jon rishtalariga singib ketsa, jism-u joni Vatanga bog'lanib ketsa, u haqiqiy Vatanni kashf etgan bo'ladi:

*Har kishi gar jism-u jon-u ko'nglida to'lgay Vatan –
Bul Vatan bo'lgay Vatan, bo'lgay Vatan, bo'lgay Vatan.*

Ikkinchi misradagi badiiy takror fikrning poetik kuchini yana-da oshirib, birinchi misra g'oyasini to'ldiruvchi bong kabi yangragan.

Quyidagi fard ham Vatanga muhabbatni oshirishga qaratilgan bo'lib, mashaqqatlar bilan Vatanga munosib bitta o'g'lon o'stirmoq, yurt uchun bitta mustahkam qo'rg'on barpo etishga qiyoslanadi:

*Ranj chekib gar bitta o'g'lon o'stirursan sen bukun –
Bitta qo'rg'on o'stirursan asli o'z yurtning uchun.*⁷³

Fardlarning janriy xususiyatidan kelib chiqib mulohaza yuritadigan bo'lsak, Sirojiddin Sayyid fardlarida ham fikrni ixcham, lo'nda ifodalash, ulkan g'oyani ikki misraga yorqin va ta'sirchan singdirish, aniq xulosa va dalillarni keltirish mahoratini kuzatamiz. Shoir fardlari Vatanni yana-da teranroq anglashda, vatanparvarlik g'oyalarini kitobxon qalbiga singdirishda xalq maqollari va aforizmlar singari badiiy vazifa bajarishga xizmat qilgan.

Sirojiddin Sayyid ijodida kichik lirik janrlar, xususan masnaviy va fard janrlari o'ziga xos badiiy talqin va poetik mahorat bilan namoyon bo'ladi. Masnaviyalarda mumtoz adabiyot an'analari zamonaviy ruh bilan uyg'unlashib, mazmun va shakl yaxlitligini ta'minlagan. Asarlarda qo'llangan qofiyalar, badiiy tasvir vositalari hamda ohangdorlik she'rlarning ta'sirchanligini kuchaytirgan. Fardlarda esa fikrning ixcham, lo'nda va teran ifodalanishi orqali Vatan, ma'rifat va insoniy qadriyatlar yuksak badiiy saviyada talqin etilgan. Binobarin,

⁷¹ Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. –Тошкент: SHARQ, 2019. – Б.305

⁷² О'sha asar. – Б. 306

⁷³ О'sha asar. – Б. 307





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Sirojiddin Sayyidning kichik lirik janrlardagi ijodi zamonaviy o'zbek she'riyatining g'oyaviy-badiiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi va milliy adabiy an'analarning davomiyligini namoyon etadi.

